

## MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING O'RNI

**Astanayev Qulmaxammat Sanayevich**

*Dotsent Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi jamiyatda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xizmatlar sohasini soddalashtirishda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish, iqtisodiyotni raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalarga talabni rivojlantirish tahlil qilingan, "Innovassion" tushunchasi yangilik sifatida va iqtisodiy kategoriya sifatida ochib berilgan, raqamlashtirish innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan iqtisodiy jarayonlarni harakatlantiruvchi sharoitlarda innovatsiyalarni joriy etish xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, innovatsion platformalar, innovatsion texnologiyalar, tarmoq effekti, telekommunikatsiya infratuzilmasi, iqtisodiyot tarmoqlari.

### KIRISH

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlangan ishlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Shunga asoslanib, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida "2020 yil – Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Buning zahirida chuqur ma'no va mazmun mujassamlashtirilgan, chunki, ilm-fan, ma'naviyat-ma'rifatga tikilgan sarmoya buyuk kelajak uchun kiritilgan investitsiyadir [1, 2].

Raqamlashtirish–bu moliya tizimlaridagi barcha jarayonlarning avtomatlashtirilishi va optimallashtirilishini ta'minlaydigan texnologik jarayondir. Moliya sohasida raqamlashtirish bir necha asosiy jarayonlarni o'z ichiga oladi:

To'lov tizimlari va elektron bank xizmatlari: Elektron to'lovlar, mobil banking, onlayn bank xizmatlari keng tarqalgan. Bu raqamli xizmatlar banklarga mijozlar bilan muloqotni osonlashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi.

Investitsiya va moliyaviy konsalting: Raqamli platformalar investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt yordamida samarali investitsiya qarorlarini qabul qilish mumkin.

Fintech startaplar va innovatsiyalar: Raqamlashtirish moliya texnologiyalari sohasida yangi startaplar va innovatsiyalarni yuzaga keltiradi. Bu, nafaqat bank tizimini, balki butun moliya ekotizimini yangi yondashuvlar bilan to'ldiradi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar kirib bormagan soha qolmadi hisob. Jarayonlarni raqamlashtirish orqali xalqimizning og'iri yengi, uzog'i yaqin bo'lmoqda.

Hozirgi zamonning eng katta yutuqlaridan biri, shiddatli rivojlanish omili-iqtisodiyotning raqamlashtirilishidir. Bu yutuq aynan ilm-fan va ma'rifat taraqqiyotining mevasidir. Raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyot—bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish avvalo, insonlarning turmush hayot

darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir. Yana bir asosiy jihati—korrupsiya va “qora iqtisodiyot”ning asosiy kushandasi hisoblanadi. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish, iqtisodiyotni raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi. Tadqiqotning vazifalari esa sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish bosqichlarini tadqiq qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish, ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or boshqaruvni qo'llashni kengaytirishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir. Tadqiqot muammosi sifatida raqamli iqtisodiyot institutlarini barpo etish va rivojlantirish, zamonaviy davlatda innovatsion komponentni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatlari o'rganib chiqildi.

Tadqiqot maqsadi—raqamli iqtisodiyotning zamonaviy sharoitida innovatsiyalarni yo'lga qo'yish xususiyatlarini ko'rib chiqishdir. Zamonaviy iqtisod sharoitida aynan bilimlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sish istiqbollari erishish va davlatning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Innovatsiya—bu ilmiy va tadbirkorlik faoliyatining yakuniy natijasi holidagi yangilik bo'lib, ilmiy loyihaga sarmoya sifatida talqin etiladi. Innovatsiyalar iqtisodiy kategoriya sifatida innovatsion jarayonlarda ishtirok etuvchi bilimlar majmui sifatida qaraladi va o'z navbatida bu iqtisodiy samara beradigan va zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan texnologik o'zgarishlarni belgilovchi kuch hisoblanadi. Innovatsiyalarning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda va

innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion salohiyat, innovatsion texnologiya, raqamlashtirish tushunchalari bilan bog'liq. Bu jihat innovatsion rivojlanish dinamikasini ko'rsatadigan harakat elementlarining mavjudligini ta'riflaydi. Ustuvor innovatsion rivojlanishni amalga oshirish ichki innovatsion salohiyat va boshqaruvning samarali ta'siri tufayli yuzaga keladi. Innovatsion rivojlanish strategiyasi davlatdagi innovatsion jarayonlarni tartibga solish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish uchun ishlab chiqilgan [4,5].

Innovatsion rivojlanish har qanday hajmdagi va har qanday o'ziga xoslikdagi korxonalar va tashkilotlar uchun dolzarbdir. Xalqaro ko'lamdagi tendensiyalar (o'zib ketayotgan texnologiyalarning paydo bo'lishi, raqamlashtirish va mahsulotlarning hayot

aylanmasining tezlashishi) aksariyat sohalarda tub o'zgarishlarga olib keladi. Qiymat zanjirlari o'zgarimoqda, rentabellik zonalarini surilib ketmoqda, yangi subyektlar paydo bo'lmoqda—bu iqtisodiyot tarmoqlaridagi kuchlar muvozanatining o'zgarishiga keskin ta'sir qiladi, yangi g'oyalar va ishlanmalarni ilgari surishni sezilarli darajada tezlashtirmoqda. Yangi imkoniyat va tahdidlarning chastotasi, shuningdek, ularni bozorlarga kirib borish tezligi ortib bormoqda.

Innovatsiyalar davlat uchun katta imtiyozlar bilan ta'riflanadi, chunki turli darajadagi innovatsion faollik Yalpi Ichki Mahsulotning o'sishida (hosildorlikning o'sishi, aholining ixtiyoriy daromadlari va soliq tushumlari natijasida) o'z aksini topadi va alohida tarmoqlarning jadal rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, shuni hisobga olish kerakki, innovatsiyalarning asosiy samarasiga turli soha va yo'nalishlarda mahsuldorlikni oshirish va texnologik o'zib ketishlar orqali erishiladi, xususan, texnologik innovatsiyalar ilg'or texnologiyalar va ichki jarayonlarni tashkil etishdagi yondashuvlarni joriy etish orqali samaradorlikni bevosita oshiradi.

Raqamli texnologiyalar moliya xizmatlarining samaradorligini oshirishga bir nechta usullarda yordam beradi:

Jarayonlarning avtomatlashtirilishi: Raqamli tizimlar yordamida banklar va moliya institutlari jarayonlarni avtomatlashtirishi mumkin. Bu esa ish haqi, qarz olish, va depozitlar kabi xizmatlarni tezlashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi.

Ma'lumotlar tahlili: Raqamli texnologiyalar yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin, bu esa mijozlar ehtiyojlarini aniqroq va tezroq aniqlashga imkon beradi. Misol uchun, kredit tarixini tahlil qilish orqali banklar xavfni baholashda yanada samarali bo'lishi mumkin.

Raqobatbardoshlikning oshishi: Raqamlashtirish xizmatlarining sifatini oshiradi, bu esa banklar va boshqa moliya institutlari o'rtasida raqobatni kuchaytiradi. Natijada, mijozlarga ko'proq foydali xizmatlar taqdim etiladi.

Raqamlashtirishning kelajakdagi istiqbollari quyidagi yo'nalishlarda kuzatilmoqda:

Blockchain texnologiyasi: Blockchain texnologiyasi moliya sohasida xavfsizlikni oshiradi. Bu tizimlar moliyaviy operatsiyalarni ochiq va ishonchli qilishda yordam beradi.

Digital valuta: Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan raqamli valyutalar moliya sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kriptovalyutalar va CBDC (Markazlashtirilgan Raqamli Pul Birligi) tizimlari moliya tizimlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Yashirin raqamli identifikatsiya va xavfsizlik: Raqamli identifikatsiya texnologiyalari yordamida mijozlarning xavfsizligini ta'minlash va firibgarlikni kamaytirish mumkin. Biometrik texnologiyalar va xavfsiz elektron imzolar, moliya sektori uchun yangi xavfsizlik choralarini taqdim etadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish joizki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi davri va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog'liq bo'lib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi. Bunga erishish uchun iqtisodiyotni raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning quyidagi asosiy shartlari va ustuvor yo'nalishlarini

sanab o'tish maqsadga muvofiq: institutsional muhit va raqamli infratuzilmani yaratish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish; rivojlangan mamlakatlar darajasida internet global tarmog'iga ulanish imkoniyatlari bilan imkon qadar to'liq qoplashni bosqichma-bosqich ta'minlash; raqamli iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish va chuqur bilimga ega malakali dasturchilar va injener-texnik xodimlarni yetishtirish; raqamli iqtisodiyot sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab quvvatlash, aholining keng qatlamlari o'rtasida "raqamli savodxonlik"ni targ'ib qilish, ilmiy hamjamiyat va xususiy sohalarida innovatsion loyihalarni qo'llab quvvatlash;

raqamli iqtisodiyot sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

ilmiy bilimlar talab qiladigan mahsulotlar hajmini va aholining daromadlarini oshirib, budjetning har xil tushumlarini ko'paytirish;

yangi turdagi ishlab chiqarish korxonalari va zamonaviy texnologiyalarni keng miqyosda jalb qilish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zRes.Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni, 2020 yil 2 martdagi PF-5053-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4699-son qarori. *Использованная литература.*

3. Rustamovna K. N. State Support Areas for the Cultivation of Medicinal Plants in Agriculture. – 2023.

4. Khidirovich E. R. et al. Issues of Development of the Pharmaceutical Industry on the Basis of Improving the Cultivation of Medicinal Plants. – 2023.

5. Рахимов, А. Н., Махматкулов, Г. К., и Рахимов, А. М. (2021). Построение эконометрических моделей развития сферы услуг для населения региона и их прогнозирование. *Американский журнал прикладных наук*, 3 (02), 21–48.

6. Jo'rayev, F. D., Ochilov, M. A., Rakhimov, A. M., & Doliyev, S. Q. (2023). Algorithms for improving models of optimal control for multi-parametric technological processes based on artificial intelligence. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 460, p. 04013). EDP Sciences.

7. Ochilov, M. A., Juraev, F. D., Maxmatqulov, G. X., & Rahimov, A. M. (2020). Analysis of important factors in checking the optimality of an indeterminate adjuster in a closed system. *Journal of Critical Review*, 7(15), 1679-1684.

8. Mukhitdinov, Kh S., and F. D. Juraev. "Methods of Macroeconomic Modeling." *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)*, e-ISSN: 2456-6470.

9. Muxitdinov, K. S., & Khudoyorov, L. N. (2016). Information-analytical support systems forecasting small businesses. *Web of Scholar*, (5), 12-14.

10. Rakhimov, A. M. (2019). Important of bank deposit policy in expanding of the deposit base of commercial banks. *Экономика и бизнес: теория и практика*, (5-2), 198-200.
11. Raximov, A. (2022). Aholiga yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojida ichki va yondosh tarmoqlarning ta'sirini baholash (qashqadaryo viloyati misolida). *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 23(4), 397-402.
12. Maxmatkulov, G'. (2022). Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholashda trend modellarini tanlash mezonlari (qashqadaryo viloyati misolida). *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 23(4), 381-386.
13. Maxmatqulov, G. X. (2023). Savdo xizmatlari tarmog'ini rivojlantirish masalalariga tizimli yondoshuv. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 175-182. Retrieved from.
14. Juraev , F. D.(2021). Problems Of Informatization Of Management Of Agricultural Industry And Modeling Of Agriconomic System In A Market Economy. *The American Journal of Applied Sciences*, 3(02), 49-54.
15. Juraev, A. Kh, et al. "Nonlinear control object identification problems: Methods and approaches." *E3S Web of Conferences*. Vol. 392. EDP Sciences, 2023
16. Жўраев Ф. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqboldagi muammolari va ularni ekonometrik modellashtirish //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №. 4. – С. 377-385.
17. Jo'rayev, F.D., and G. Aralov.M.(2023). Qishloq xo 'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini ekonometrik modellashtirish zaruriyatining asosiy jihatlari." *Educational research in universal sciences* 2.2: 36-43.
18. Khudoyorov, L. N., Noraliyeva, S. S., & Вахронova, N. S. (2024). Development of digital economy and its role today. *Экономика и социум*, (5-1 (120)), 432-434.
19. Khudoyorov, L. N. (2020). Forecasting the development of small business and private entrepreneurship on the basis of multifactorial empirical models. *Science and World*, (11 (87)), 41.
20. Останаев, К. С. (2023). Формирование трудовых отношений в экономической системе. *Экономика и социум*, (10 (113)-2), 757-764
21. Астанаев К. С. Факторы развития предпринимательства в сельском хозяйстве //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-1 (121). – С. 918-922.
22. Астанаев, К. С. (2024). Основные аспекты необходимости факторов развития предпринимательства в сельском хозяйстве. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 3(34), 80-84.